

**UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTAB O'QUVCHILARINI MILLIY
HUNARMANDCHILIKKA OID KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH**

**НАПРАВЛЕНИЕ УЧАЩИХСЯ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ СРЕДНИХ
ШКОЛ К НАЦИОНАЛЬНЫМ РЕМЕСЛАМ И ПРОФЕССИЯМ.**

**DIRECTION OF GENERAL SECONDARY SCHOOL STUDENTS TO
NATIONAL CRAFTS AND PROFESSIONS**

Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich
Shahrisabz davlat pedagogika instituti Professori

E-mail: murodshomirzayev@gmail.com

G'aniyeva Difuza A'lam qizi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi

Annotasiya: Maqolada o'quvchilarning milliy hunarmandchilik kasblariga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirish usullari batafsil yoritilgan.

Kalit so'z: Milliy, faoliyat, hunarmandchilik, kasb-hunar, ijodkor, mahsulot, qiziqish, shakl.

Аннотация: В статье подробно описаны способы формирования у читателей интереса к народным ремесленным профессиям.

Ключевое слово: национальный, деятельность, ремесло, профессия, креатив, продукт, интерес, форма.

Annotation: the article details the methods of forming students' interests in the national craft professions.

Keyword: National, Activity, craft, professional, creative, product, interest, form.

Kirish. O'quvchilarning milliy hunarmandchilik kasblariga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirish asosida o'quvchilar olgan bilim va ko'nikmalar ularni quyidagi masalalarni mustaqil ravishda hal etishini ta'minlanishi kerak:

Kasb-hunarga yo'naltirish jarayonidagi vazifalar, ularning tavsiflari, ularni loyihalash nuqtai nazardan tahlil qilish;

Hunarmandchilik mashinalarini sifatlari xarakteristikalarini tanlash. Ularga turli konstruktiv va texnologiya faktorlarni ta'sirini tadqiq qilish;

hunarmandchilik texnologiyalarini joriy etishning samarali metodlarini, konstruksiyasi sodda turkumlarini yaratish va ularni amaliyotda qo'llash.

Adabiyotlar tahlili. Olimlarimizning kasb-hunar o'qitilishi haqidagi ilmiy izlanishlarida o'quvchilarning milliy hunarmandchilik kasblariga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirish usullari haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan. Buyuk muhaddis, islom olamida yirik alloma sifatida tanilgan Imom Buxoriy o'zining "Al-jomi'y as-sahih" ("Ishonarli to'plam") asarida kasb-hunar o'rganish, mehnat qilish va uning afzalligi to'g'risidagi hadislarini to'plab sharhlagan. Masalan, 14-bobida

“Kishining kasbi va o‘z qo‘li birlan mehnat qilishi haqida”gi hadisda shunday deyiladi: “Mening o‘z kasbim borligini qavmimiz yaxshi bilur. Men garchi musulmon ishlari birlan band bo‘lsam ham shu kasbim orqali oila tebraturman” - deb yozadilar. Shuningdek, ushbu asarda “To‘quvchi haqida”, “Temirchi haqida”, “Tikuvchi haqida”, “Savdo ishlari haqida” alohida e‘tiborga molik boblar, hadislar keltirilgan [5.18-b.].

Buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiyning asarlarida insonlarni ilm-ma‘rifatli bo‘lishga, halol mehnat qilishga, kasb-hunar egallashga hamda inson shaxsining ijodiy va bunyodkorlik kuchini va uning kamolotini, qadr-qimmatini ulug‘lashga chorlaydi.

Masalan, Forobiyning fikricha, “kimki go‘zal va foydali bo‘lsa, kashf etgan narsasi chindan ham o‘zining istagiga va boshqa bironing istagiga muvofiq bo‘lmas yoki uni boshqalarning xohishiga muvofiq deb gumon qilinsa, kashf yoki ijod etilgan narsa haqiqatan ham, xayrli va foydali” [5.99-b.].

Texnologiya fani dars mashg‘ulotlarida milliy hunarmanchiligining variativ komponentlarini integrativ takomillashtirish metodlarini qo‘llash jarayonini umumiy o‘rta ta‘lim maktablari kasb to‘garaklarida va dars mashg‘ulotlari jarayonlarida qo‘llash mumkun.

Umumiy o‘rta ta‘lim maktablari o‘quvchilari ma‘naviy, madaniy qadriyatlardan foydalanishni o‘quv-tarbiyaviy tadbirlar mazmunidan oladi. Shuning uchun tadbirlar psixologik, pedagogik, didaktik maqsadlarga asoslangan holda olib borilishi lozim. Ta‘lim-tarbiyaviy tadbirlar o‘quvchilarning kelgusi hayotiga, samarali mehnat faoliyatiga va turli kasb-hunarlarning asoslarini egallab borishlariga ahamiyati va imkoniyati benihoya katta hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. O‘quv-tarbiyaviy tadbirlar deganda, umumiy o‘rta ta‘lim maktablari va maktabdan tashqari ta‘lim-tarbiya muassasalari, davlat, xususiy, ishlab chiqarish korxonalari, mahalla jamoatchilik orasida o‘quvchilar ishtirokida o‘quv rejalari asosida bir necha fanlarga tayangan holda tashkil etilib, o‘tkaziladigan ijtimoiy foydali mashg‘ulotlar majmui tushuniladi [7.51-b.].

Bunday o‘quv-tarbiyaviy tadbirlarning qulaylik tomonlaridan biri shundan iboratki, ajratilgan vaqtni, mashg‘ulot o‘tkaziladigan joyni, qatnashuvchilar sonini, maqsadi va vazifalarini belgilash aksariyat hollarda o‘quvchilar va o‘qituvchilarning ixtiyorida bo‘ladi. Dars mashg‘ulotlarining tashkil etilishida esa, maqsad va vazifalaridan tashqari, tuzilishi maktab umumiy o‘quv rejasiga, dars jadvaliga, kunlik o‘qish tartibiga qat‘iy bo‘ysunishi talab etiladi. O‘tkaziladigan barcha o‘quv-tarbiyaviy tadbirlar maktab o‘quv-tarbiyaviy jarayonining ajralmas bir qismi hisoblanib, o‘quvchilarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishdan tashqari, ta‘lim-tarbiyaning ma‘lum bir yo‘nalishlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida o‘quvchilarni hunarmandchilik kasblariga qiziqtirishda “texnologiya va dizayn” va “servis” yo‘nalishlariga kasb tanlashga yo‘llash va inson hayotida kasbning o‘rni, kasblar tasnifi, kasblarda mehnat turlarining

ta'rifi, kasbni to'g'ri tanlashning mohiyati va istiqboli, kasb tanlashdagi onglilik va mustaqillik, kasbga yaroqlilikni belgilash va moyillikni tarbiyalash usullari haqidagi mavzulari o'qitilib o'rgatiladi va o'quvchilar kasb-hunar haqidagi bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'ladilar.

Shu bilan bir qatorda nazariy ma'lumotlarga ega bo'lib qolmay kasbiy o'z-o'zini anglash va kasbiy qiziqishni aniqlash usullari bo'yicha amaliy mashg'ulotlar olib boriladi.

O'quvchilarning kasb tanlashida kasbga yo'llash texnologiyasini qo'llaganimizda kasb professiogrammasi orqali o'quvchilarga kasblar to'g'risida ma'lumot berishdir.

Professiogramma-bu insonning psixologik xususiyatlariga tayangan qisqa kasbiy tavsifdir. Bunda quyidagi ma'lumotlar beriladi.

kasb haqida umumiy ma'lumot;

kasb turi;

bilim, ko'nikma va malaka;

muhim kasbiy sifatlar;

shaxsiy fazilatlar;

ishlash sharoiti;

ish tartibi;

Tibbiy monelik(cheklovlar);

Ishlashi mumkun bo'lgan joylar [5.52-b.].

Professiogrammaning zarur tarkibiy qismi kasb psixogrammasidir. Psixogramma bu kasbiy faoliyatning psixologik tavsiyalari, har bir ishchining psixofiziologik va shaxsiy sifatleri ko'rsatkichlarini aniqlab beradi. 20-asr boshlarida psixogramma shaxs kasbining zarur sifatleri yig'indisi deb ko'rilgan. Psixogramma atamasini nemis psixologi B. Shtern tomonidan tavsiya etilgan.

B. Shtern ma'lum bir shaxsning psixologik portreti metodikasini ishlab chiqqan. Shuningdek rus olimi S. G. Gellershteyn namuna sifatida 1920-yillarda kasbiy tanlov uchun tuzulgan psixogrammalarini keltirgan. U kasbiy tavsiyaning noaniqligini psixologik tahlil usulida takomillashtirishni tavsiya etgan.

Kasbga yo'llash ishlari texnologiya dars mashg'ulotlarida "Professiogramma" va "Kasb tanlash varaqasi"ni to'ldirish haqidagi amaliy mashg'ulotlar olib boriladi va o'quvchilarning kasb tanlashga moyilliklari aniqlanadi. Kasb tanlash varaqasi savolnomasida quyidagi savollar berilgan bo'ladi. Familiyasi va ismi, tug'ulgan yili, sinfi, manzili, ota-onasi to'g'risida ma'lumot, oilasiga bolalar soni, shug'ullanishi uchun sharoit yaratilgani, salomatlik holati, kasb tanlash xususida shifokor bilan suhbatlashganligi, fanlarga qiziqishi, qobiliyati, oilaviy ishlarni bajarishda mustaqil fikri, uy topshiriqlarini qanday bajarishi, kelgusida kim bo'lmoqchiligi, ota-onangizni fikri siznika mosmi, qo'shimcha fikrlaringiz.

Kasbga yo'naltirishning asosiy maqsadi o'quvchilarni, o'sib kelayotgan yosh avlodni ongli va mustaqil ravishda kasb tanlashga tayyorlashdan iborat. O'quvchilarning nechog'lik hunarmandchilik sohasiga bo'lgan qiziqishlarini aniqlash maqsadida kasbga yo'llash ishlarini texnologiya fani mashg'ulotida olib bordim. Bu mashg'ulot Boysun tumanidagi 35-umumiy o'rta ta'lim maktabida tajriba gurihida o'tkazildi. Ushbu taqdimotni tayyorlashda o'quvchilarga milliy hunarmandchilik va uning variativ komponentlarini takomillashtirish haqida ma'lumotlar berildi, ushbu ma'lumotlarni o'qib o'rganib kelish va "Men tanlagan kasbni egallashda kelgusi rejalarim" mavzusida ijodiy ish taqdimotini tayyorlab kelish vazifa qilib berildi. O'quvchilar "Men tanlagan kasbni egallashda kelgusi rejalarim" mavzusida ijodiy ish taqdimotini tayyorlab kelishdi va uni namoyish etishdi.

"Men tanlagan kasbni egallashda kelgusi rejalarim" mavzusidagi ijodiy ish taqdimotiga maktab psixologi va ijodiy ish taqdimoti olinayotgan sinfning sinf rahbarini, ma'naviy-marifiy sihlar bo'yicha direktor o'rinbosari ishtirok etdi. Taqdimotni ma'naviy-marifiy sihlar bo'yicha direktor o'rinbosari kirish so'zi bilan ochib berdi, so'ngra maktab psixologi o'quvchilarga bu taqdimotning maqsadi, ahamiyati, o'quvchilarning kelajak rejalarini tuzishda har tamonlama mustahkam o'ylab mustaqil o'zi reja asosida taqdimot tuzishi lozimligi haqida o'quvchilarga ma'lumotlar berdi.

O'quvchilarning tayyorlab kelgan taqdimoti kuzatilib va tahlil qilib borildi.

Taqdimotni tayyorlashda o'quvchilar avval shaxsiy kasb rejasini tuzib olishdi. O'quvchilar shaxsiy kasb rejasi asosiy maqsadini belgilab oladi. Taqdimot tayyorlash jarayoni o'quvchilarga maqsadga erishishida to'g'ri yo'lni tanlab olishida, shuningdek shaxsning qobiliyatini namoyish etishida turtki bo'lishi tushuntirildi.

Kasbga oid reja bu insonning kelajagi haqidagi tasavvuridir. Bu tasavvur insonning o'ziga va tajribasiga bog'liq holda rivojlanadi. Rejalashtirish uch xil usulda bo'ladi:

Uzoq muddatli (bir necha o'n yil)

O'rta muddatli (bir necha oy va yil)

Qisqa muddatli (bir necha kun va hafta)

Taqdimot tayyorlashda o'quvchilar shaxsiy rejalarini tuzushda maksimal darajada mustaqil tayyorlashi lozim, chunki ertangi hayotida bu tanlagan kasbida yakka o'zi faoliyat yuritadi. O'quvchilar maqsadga erishishning bir necha yo'lini ko'rishi mumkun, lekin eng to'g'ri yo'lni tanlashi lozim.

Kasbiy reja tuzushni mashhur psixolog Y.A. Klimov ishlab chiqqan. Y.A. Klimov ishlab chiqqan jadvaldan foydalanib o'quvchilarning qaysi kasb egasi bo'lishini aniqladim va kasblar diogrammasini ishlab chiqdim. Y.A. Klimov jadvali asosida shaxsiy, kasbiy reja tuzish haqida o'quvchilarning xoxshini, istak, maylini aniqladim (1-jadval) [5.54-b.].

Shaxsiy kasb rejasi.

Asosiy maqsad-qaysi kasbni tanlayman?	Nima bilan shug'ullanaman, umumiy ish uchun qanday hissa qo'shaman, qanday bo'laman, qaerda bo'laman, kimga tenglashaman, kim bo'laman, nimaga erishaman.
Ushbu kasbni tanlashdan maqsadim?	Men nima uchun bu kasbni tanladim, menga qaysi tomonlari yoqdi, qaysi tomoni biroz yoqmayapdi.
Maqsadimga erishishning eng yaqin yo'li?	Yordamchi adabiyotlardan foydalanish, mutaxassislar bilan suhbatlashish, o'zini-o'zi tarbiyalash, maxsus o'quv yurtiga kirish.
Maqsadimga erishishim yo'lidagi men uchun to'siqlar?	Qiyinchiliklar, uchrashi mumkun bo'lgan qarshiliklar, u yoki bu odamlarning qarshiliklari.
Maqsadimga erishish uchun o'zimning imkoniyatlarim?	Sog'lik holati, bilim olishga uquv, talabchanlik, sabr, amaliy va nazariy mehnatga moyillik, boshqa shaxsiy xususiyatlar, o'zini-o'zi tarbiyalash ishlari.
Maqsadimga erishish yo'lidagi zahira usullari?	Mutaxassislik bo'yicha o'qiyman yoki shu yo'nalish bo'yicha qisqa kurslarga qatnayman.
Maqsadimga erishgan kasbimning men uchun ahamiyatli jihatlari?	Nima uchun shu kasbni yaxshi ko'raman, menga yoqadigan tomonlari, maboda kasbimni o'zgartiramanmi.

Xulosalar. Shu o'rinda o'quvchilarning milliy hunarmandchilik kasblariga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirish usullari shaxsiy kasb rejasini tuzish va shu asosida taqdimotini tayyorlaydi. O'quvchilarning har biri o'z taqdimotida bergan fikrlarini jamlab, o'rganib chiqib o'zlarining yaxshi fikrlarini jamlaydilar. Jamlagan fikrlari asosida xulosa tayyorlaydi va bu tayyorlagan xulosasini kasb ta'limi o'qituvchisiga qaror qabul qildim deb topshiriladi. O'qituvchi barcha o'quvchilarning qarorlarini yig'ib olinadi. Ijodiy ish taqdimotining tahlili qilinib, natijasi o'quvchilarga eshittiriladi. O'quvchilar kasb tanlashining diagrammasi bilan tanishadilar. O'quvchilarning kasb tanlashidagi kasblar diagrammasi tahlili qilinib aniqlanildi va tajriba-sinov bobida keltirib o'tdim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 noyabrdagi "Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5242-son farmoni. www.lex.uz.
2. O'zbekiston Respublikasi 2019 yil 29 apreldagi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-sonli farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 28 noyabrdagi "Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4539-son qarori.
4. Texnologiya fani o'quv dasturi. (1-9-sinf) Toshkent-2017yil.
5. Imom Buxoriy. "Al-jomi' as-sahih" ("Ishonarli to'plam"). Toshkent: Fan, 1976 yil. –484 b.
6. Abu Nasr Forobiy. Tanlangan asarlar. 2-jild. Toshkent: Fan, 1967. -B. 99.
7. Texnologiya ta'limida milliy hunarmandchilikning variativ komponentlarini integrativ takomillashtirish. Monografiya. N.Q Muhamadiyeva.- Termiz.: "TerDU nashr-matbaa markazi" nashriyoti, 2022. – 111 b.